O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TURAN INTERNATIONAL UNIVERSITY

"TASDIQLAYMAN"
Turan International University rektori
_______ A.X.Najmitdinov
"24" 12 2025 y.

Ro‘yhatga olindi: B8
"24" 12 2025 y.

"60411900 - Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar" ta’lim yo‘nalishi fanlaridan yakuniy davlat attestatsiya sinovi

# DASTURI

Namangan-2025

## Annotatsiya

Mazkur dastur "Ta'lim to'g'risidagi" qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-dekabrdagi "Oliy va kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 836-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-73-sonli Farmoni va Qarorlarida belgilangan vazifalar hamda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko'tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo'yicha eng muhim ustuvor yo'nalishlar asosida belgilangan vazifalardan kelib chiqib "Turan International Universityda bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining yo'nalish fanlaridan yakuniy davlat attestatsiyalarini tashkil etish tartibi to'g'risida yo'riqnoma"ga asosan tayyorlandi.

Yo'nalish fanlardan tuzilgan sinov dasturi 60411900 - Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan fanlarning dasturi asos qilib olindi.

Dastur 5 ta bo'limdan iborat bo'lib, "Mikro-makro iqtisodiyot", "Jahon Iqtisodiyoti 1, 2", "Raqamli iqtisodiyot" va "Iqtisodiyot nazariyasi" kabi fanlarni o'z ichiga olib, unda ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchiga quyilgan kasbiy bilim, ko'nikma va malaka darajasini baholash masalalari o'z aksini topgan.

**Tuzuvchilar:** **S. Saidov**

**Sh. Sultanov**

**A.G'iyosiddinov**

**S. Dadabayev**

**Taqrizchi:** **Z.Kodirov**
**Turan International University Biznes boshqaruvi kafedrasi mudiri, dotsenti**

Dastur Turan International University "Biznes boshqaruvi" fakulteti yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlash uchun Universitet kengashiga tavsiya etilgan 2025-yil "22" 12 dagi ______sonli majlis bayoni.

Dastur Turan International University kengashi tomonidan tasdiqlangan. 2025-yil "24" 12 dagi ______sonli majlis bayoni.

## Kirish

Mamlakatimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ish beruvchi korxona va tashkilotlarni ta'lim jarayoniga jalb etish hamda Turan International University 60411900 - Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini takomillashtirish maqsadida ushbu Dastur ishlab chiqildi.

Mazkur dastur 60411900 - Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini (YDA) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi hamda bitiruvchilarning egallagan nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va kasbiy kompetensiyalarini baholash mezonlarini aniqlaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasining asosiy maqsadi – talabalar tomonidan ta'lim yo'nalishi bo'yicha davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarida nazarda tutilgan bilim, malaka va ko'nikmalarning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash, ularning mustaqil kasbiy faoliyat yuritishga tayyorgarligini baholashdan iborat.

Attestatsiya jarayoni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, oliy ta'limga oid davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari hamda tegishli tartib-qoidalarga muvofiq ravishda tashkil etiladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi ochiqlik, xolislik va shaffoflik tamoyillari asosida o'tkaziladi.

Mazkur dasturda yakuniy attestatsiyaning shakllari, baholash mezonlari, davlat attestatsiya komissiyasining vazifalari, bitiruvchilarning huquq va majburiyatlari, shuningdek natijalarni rasmiylashtirish tartibi bayon etiladi.

### I.Yakuniy davlat attestatsiyasi qo'yilgan umumiy qoidalar

1.Umumiy tushunchalar:

**yakuniy davlat attestatsiyasi** (keyingi o'rinlarda – attestatsiya) – bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini baholash jarayoni.

**yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi** – bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining bilimi, ko'nikma va malaka darajasini baholovchi soha mutaxassislaridan iborat komissiya.

2. Attestatsiya oliy ta'lim tashkilotidagi har bir bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha tashkil etiladigan komissiya tomonidan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning xususiyatidan kelib chiqib, oliy ta'lim tashkilotida yoki korxonada (tashkilotda) o'tkazilishi mumkin.

3. Attestatsiya quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

- maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy fanlar) bo'yicha sinov;
- bitiruv malakaviy ishi himoyasi;
- diplom loyihasi himoyasi;
- magistrlik dissertatsiyasi himoyasi;
- ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikka mos "startap" loyihasi hamda ratsionalizatorlik g'oyasi taqdimoti.

4. Ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik bo'yicha maxsus (majburiy) fanlardan (kasbiy-amaliy) attestatsiya fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, malaka talablarida nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malaka darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

### II.Komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi

5. Komissiya o'z faoliyatini Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom talablariga muvofiq amalga oshiradi.

6. Komissiya raisligiga nomzodlar ro'yxati tegishli kafedra mudiri tomonidan shakllantiriladi hamda tasdiqlash uchun oliy ta'lim tashkiloti rektoriga (filial direktoriga) taqdim etiladi.

7. Komissiya raislari oliy ta'lim tashkilotining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lim tashkilotida faoliyat yuritmayotgan olimlar, ishlab chiqarish sohasidagi tajribali mutaxassislar orasidan tegishli oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan bir kalendar yili muddatiga tasdiqlanadi.

Komissiyaning tarkibi oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan kamida bir oy oldin tasdiqlanadi.

Komissiya kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan iborat tarkibda shakllantiriladi hamda uning uchdan ikki qismi qatnashganda, vakolatli hisoblanadi.

Bunda komissiya tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagog kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek, kadrlar buyurtmachisi bo'lgan korxonalarning (tashkilotlarning) yuqori malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim tashkilotlarining yetakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, sohaning ilg'or mutaxassislari va olimlaridan iborat bo'ladi.

8. Quyidagilar komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- bitiruvchining bilim, ko'nikma va malaka darajasining tegishli ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik malaka talablariga muvofiqligini kompleks baholash;
- attestatsiya natijalari bo'yicha bitiruvchilarga tegishli akademik darajasini berish bo'yicha qaror qabul qilish;
- faoliyat natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

9. Attestatsiyada oliy ta'lim tashkilotining Vasiylik (Kuzatuv, Boshqaruv) kengashi va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari vakillari, bitiruvchilarning ota-onalari yoki ularning qonuniy vakillari hamda kadrlar buyurtmachilari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

Attestatsiya jarayoni onlayn rejimda ovozli videotranslyatsiya qilinadi hamda ushbu videotasvirlar bir yil davomida tegishli kafedrada saqlanadi.

## III. Attestatsiyani o'tkazish tartibi

10. Attestatsiyaga tegishli fanlarni o'zlashtirgan, belgilangan kreditlarni to'plagan hamda to'lov-kontrakt shartlarini to'liq bajargan bitiruvchilar qo'yiladi.

Bitiruvchilar o'quv yuklamalarini to'liq bajargandan so'ng attestatsiyadan o'tishi majburiy hisoblanadi.

11. Bitiruvchilarning maxsus (majburiy) fanlar (kasbiy-amaliy) bo'yicha attestatsiyasi, diplom loyihasi (bitiruv malakaviy ishi) yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi oliy ta'lim tashkiloti yoxud korxonada (tashkilotda) tashkil etiladi.

12. Oliy ta'lim tashkiloti tomonidan tajribali professor-o'qituvchilar hamda korxonalarning (tashkilotlarning) mutaxassislarini jalb etgan holda, attestatsiyaning dasturlari attestatsiya boshlanishidan kamida uch oy oldin ishlab chiqilib, oliy ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan tasdiqlanadi va oliy ta'lim tashkilotining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

13. Attestatsiya o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda, fakultet dekani yoki o'quv-uslubiy ishlarga mas'ul tarkibiy bo'linma (bo'lim, boshqarma) tomonidan tayyorlangan hamda oliy ta'lim tashkiloti o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan attestatsiya jadvali asosida o'tkaziladi.

14. Oliy ta'lim tashkiloti Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan attestatsiyaning shakli bir o'quv yili davomida o'zgartirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

15. Attestatsiya boshlanishidan ikki hafta oldin komissiya raisi bilan oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) komissiyaning tayyorgarlik darajasi, komissiya raisi va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazadi.

16. Attestatsiyada plagiatga yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda, attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiyadan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi himoyadan ikki hafta oldin antiplagiat dasturi asosida tekshiriladi va plagiatga yo'l qo'yilganligi aniqlansa, takroran bir marotaba qayta tekshirishdan o'tkazishga ruxsat beriladi. Ikkinchi marotaba ham plagiat holatlari bartaraf etilmagan taqdirda, attestatsiya keyingi yilga qoldiriladi.

Bunda plagiat holatlari bartaraf etilgan taqdirda, bitiruvchiga attestatsiyada qatnashishga ruxsat beriladi.

17. Attestatsiyada bitiruvchilarning bilimi, ko'nikma va malakasi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

18. Attestatsiya natijalari attestatsiya o'tkazilgan kunning o'zida bitiruvchilarga e'lon qilinadi.

19. Attestatsiyada bitiruvchi qoniqarsiz baho bilan baholanganda bitiruvchiga diplom berilmaydi hamda attestatsiyani mazkur Nizomga muvofiq qayta topshiradi.

20. Komissiya bitiruvchilarga attestatsiyaning ijobiy natijalari asosida bakalavr (magistr) darajasini berish haqida qaror qabul qiladi.

Komissiyaning qarorlari ochiq ovoz berish orqali majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan hollarda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lim tashkiloti bitiruvchisi attestatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng bir oy muddat ichida unga muvofiq darajadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom va uning ilovasi beriladi.

O'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida to'rtdan uch qismi bo'yicha "5" (a'lo) baho (90 - 100 ball) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi "4" (yaxshi) bahodan (70 - 89,9 ball) kam bo'lmagan), shuningdek, attestatsiyadan "5" (a'lo) baho (90 - 100 ball) ko'rsatkichiga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga "imtiyozli" diplom beriladi.

22. Attestatsiyadan o'ta olmagan yoki attestatsiyaga qo'yilmagan bitiruvchi o'qish muddati tugagandan so'ng, uning arizasiga muvofiq attestatsiyani keyingi uch yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Attestatsiyadan o'ta olmagan bitiruvchidan attestatsiyani qayta topshirish jarayonlarida to'lov undirilmaydi.

Attestatsiyadan o'ta olmagan bitiruvchi keyingi o'quv yili boshlanganidan keyin attestatsiyani qayta topshirishga ruxsat berishni so'rab oliy ta'lim tashkiloti rektori (filial direktori) nomiga ariza bilan murojaat qiladi. Bunda bitiruvchiga attestatsiyani keyingi har bir o'quv yilida (uch yil davomida) ikki martadan ortiq qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Attestatsiyani qayta topshirishga oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan ruxsat beriladi.

## IV. Attestatsiyani baholash natijalari yuzasidan shikoyat qilish tartibi

23. Attestatsiya natijasi bo'yicha olgan bahosidan norozi bo'lgan bitiruvchilar arizalarini ko'rib chiqish uchun oliy ta'lim tashkiloti rektorining (filial direktorining) buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi oliy ta'lim tashkilotining ilmiy-pedagogik kadrlari (apellyatsiya komissiyasi umumiy tarkibining 40 foizigacha), shuningdek, tegishli soha bo'yicha korxonalarning (tashkilotlarning) malakali mutaxassislari, turdosh oliy ta'lim tashkilotlarining tajribali professor-o'qituvchilari va ilmiy xodimlari orasidan kamida 5 nafar a'zodan iborat tarkibda tuziladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga joriy yilda komissiya ishida ishtirok etgan komissiya a'zolari kiritilmaydi.

24. Attestatsiyada qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar attestatsiya baholari e'lon qilingan kundan boshlab uch ish kuni ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga ega.

## V. Baholash mezonlari

60411900 - Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar ta'lim yo'nalishi bo'yicha Yakuniy Davlat attestatsiyasi yo'nalish fanlaridan test sinov savollari dasturi doirasida o'tkaziladi. Test savollari ta'lim yo'nalishining "Mikro-makro iqtisodiyot", "Jahon Iqtisodiyoti 1, 2", "Raqamli iqtisodiyot" va "Iqtisodiyot nazariyasi" kabi yo'nalish fanlarini ichiga olib 400 ta savoldan iborat bo'ladi. Test sinovini baholashning umumiy mezoni 0 baldan 100 balgacha tashkil etadi. Har bir savol maksimal 2 baldan baholanadi.

Savolnomadagi 50 ta test savolining javoblariga qo'yilgan ballar yig'indisi asosida bitiruvchi talabaning Yakuniy Davlat Attestatsiyasida yo'nalish fanlaridan to'plagan umumiy bali aniqlanadi.

| № | Umumiy ball | Baho | | YaDA topshirgan talabaning bilim darajasi |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 90-100 | 5 | A'lo | Savolning mazmun va mohiyati to'liq ochib berilgan |
| 2 | 70-89,9 | 4 | Yaxshi | Javobda talabaning mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi |
| 3 | 60-69,9 | 3 | Qoniqarli | Savolga javob berishda masalaning mohiyatini tushunilganligi |
| 4 | 0-59,9 | 2 | Qoniqarsiz | Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas |

### 1-fan. "Mikro-makro iqtisodiyot" fanidan test topshiriqlari

1. Inflyatsiyani boshqarishning bilvosita usullaridan biri qaysi.
2. Investitsiyalar mamlakat uchun qanday foyda keltirishi mumkin.
3. Tabiiy ishsizlik darajasi aniqlang.
4. Ishsizlik qanday holatda yuzaga keladi.
5. Juglar sikli necha yillik davrni o'z ichiga oladi.
6. Venchur (venture) investitsiyaning asosiy xususiyati nima.
7. Friktsion ishsizlik nima bilan bo'ladi.
8. Kredit muddati bo'yicha qaysi turga bo'linmaydi.
9. Portfel investitsiyasining real investitsiyasidan qanday farqi mavjud.
10. Tovarning hayotiy tsiklik davriga kirmaydigan bosqichni belgilang.
11. Inflyatsiyaning ichki sabablaridan biri qaysi.
12. Ishsizlikning beshta asosiy sababi qaysilar.
13. Korxonaning iqtisodiy xarajatlarini toping.
14. Stagflyatsiya nimani bildiradi.
15. To'liq ta'minlangan kreditning xususiyati nima.
16. Iqtisodiy tsiklning eng yuqori nuqtasi nima deb ataladi.
17. Inflyatsiyaning tashqi sabablaridan biri belgilang.
18. Ishlab chiqarish omillarini yetkazib beruvchilarga to'g'ridan-to'g'ri to'lovlar shaklini oladigan alternativ xarajatlari bu ....
19. Giperinflyatsiya qanday holatda sodir bo'ladi.
20. Raqobatdan himoyalanmagan kompaniya mahsulotning yagona yetkazib beruvchisiga aylangan monopoliya nima deb ataladi.
21. Chet el investitsiyasini qanday tushunish mumkin.
22. Quyidagilardan qaysi biri arzon kreditning belgisi hisoblanadi.
23. Iqtisodiy tsikldagi retsessiya qanday jarayon.
24. Bostirilgan inflyatsiya qanday belgilar bilan namoyon bo'ladi.
25. Iqtisodiy sikllar nimani anglatadi.
26. Mulk egasining o'z xohishiga ko'ra va o'z manfaatlarini ko'zlagan holda mulkning qonuniy taqdirini belgilovchi harakatlarni amalga oshirish qobiliyati – bu……
27. Davlatning inflyatsiyaga qarshi chora-tadbirlarini moslashtirish siyosati nimani o'z ichiga oladi.
28. Quyidagilardan qaysi omil banklarga bo'lgan ishonchni oshiradi.
29. Inflyatsiyaning asosiy sababi nima.
30. Birinchi Markaziy bank qaysi davlatda tashkil etilgan.
31. Davlat byudjeti siyosatining asosiy yo'nalishini belgilang.
32. Ko'plab ishlab chiqaruvchilar bir xil mahsulotni sotadigan va narxga hech kim ta'sir o'tkaza olmaydigan raqobat turini belgilang.
33. Kredit ishlab chiqarish jarayonining qaysi bosqichiga xizmat qilmaydi.
34. Quyida ko'rsatilganlardan qaysi biri bank institutlariga kiradi.
35. Ochiq inflyatsiya qayerda yuzaga keladi.
36. "Stokastik" yondashuvda iqtisodiy tsikllar qanday ko'riladi.
37. Davlatning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichiga nima kirmaydi.
38. Talab elastikligiga ta'sir ko'rsatmaydigan omilni belgilang.
39. Kreditlashning qaysi shakli ko'chmas mulk garovi bilan beriladi.
40. Bank tizimi qanday tashkilotlar tizimiga kiradi.
41. O'zbekistonning birinchi davlat byudjeti qachon tuzilgan.
42. Quyidagilardan qaysi biri bilvosita inflyatsiyaga qarshi choradir.
43. Qog'oz pullar nima ma'noni anglatadi.
44. Soliq obyekti nima.
45. Mikroiqtisodiyotda firmalarning band bo'gan xodimlar soni bo'yicha turini aniqlang.
46. Sinditsiyali kredit qanday beriladi.
47. Tijorat banklarining universal turi nima bilan farqlanadi.
48. Davlat byudjeti qanday qismlarga bo'linadi.
49. Daromad siyosatida narxlar va ish haqi bilan qanday munosabatda bo'linadi.
50. Yevropa maktabi pulning qanday funksiyasini ko'rsatgan.
51. Qaysi tushuncha byudjet xarajatlari daromaddan oshib ketgan holatni bildiradi.

52. Qaysi kredit turi overdraft hisoblanadi.
53. Pul-kredit siyosatining asosiy vositasi nima.
54. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning xususiy shakliga tegishli mulkichilik turini belgilang.
55. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikning davlat shaklida mulk turini aniqlang.
56. Faktoring nimani anglatadi.
57. Deflyatsiya siyosatining asosiy maqsadi nima.
58. Markaziy bank pul-kredit siyosatini qanday vositalar bilan olib boradi.
59. Byudjet profitsiti deganda nimani tushunasiz.
60. Tadbirkorlik subyektlarini tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha turini aniqlang.
61. Kriptovalyuta nima.
62. Veksel nima.
63. Davlat byudjetining moliya yili qanday davrni o'z ichiga oladi.
64. Keyns nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy inqiroz vaqtida davlat nima qilishi kerak.
65. Mikroiqtisodiyotda ishlab chiqarish xarajatlarini ifodalovchi chiziq bo`lib va u umumiy qiymati bir xil bo`lgan ikkita ishlab chiqarish omillari sarflarining barcha kombinatsiyalarini ifodalovchi nuqtalarni o`z ichiga oluvchi holat – bu….
66. Mahsulot tannarxiga olib borilishi jihatidan: qaysi xarajatni ko'rsatish mumkin.
67. Qaysi soliq turi O'zbekiston Respublikasida mavjud emas.
68. Quyidagilardan qaysi biri biznes tsiklining bosqichi emas.
69. Monopolistik raqobat holatida bozordagi firmalar soni qanday bo'lishi mumkin.
70. Fiskal siyosatning asosiy vositalaridan biri nima.
71. Bozorda ko'p sonli ishlab chiqaruvchi bo'lgan va yagona sotib oluvchi holati iqtisodiyotda nima deb ataladi.
72. Soliq imtiyozlari qanday bo'lishi mumkin.
73. O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi soliqlardan qaysi biri mavjud.
74. YaIMning haqiqatdan o'sishi nima bilan bog'liq.
75. Mehnat bozori nima.
76. Anti monopoliya siyosatida suv, elektr energiyasi, temir yo'l kabi tarmoqlarda davlat nazorati monopoliyaga qarshi kurashning qaysi yo'nalishi hisoblanadi.
77. Raqobatli bozorda firmaning pozitsiyasini belgilovchi asosiy jihatni belgilang.
78. Mehnat bozorining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu:
79. Makroiqtisodiyotda o'rganiladigan muammolardan biri nima.
80. Daromadlar usuli qanday hisoblanadi.
81. Davlatning protsessual chiqmi turini belgilang.
82. Makroiqtisodiy siyosatning maqsadlaridan biri nima.
83. Segmentatsiya belgilari quyidagilardan biri bo'lishi mumkin:
84. YaIMning qaysi turi inflyatsiya davrida o'sadi.
85. Soliq stavkasi nima.
86. Makroiqtisodiyotda kimlar makroiqtisodiy agentlar sifatida ishtirok etadi.
87. Birlamchi mehnat bozori qanday bo'ladi.
88. Yalpi milliy mahsulot nima.
89. Soliq subyekti kimlarni anglatadi.
90. Haqiqiy YaIM nima bilan hisoblanadi.
91. Soliq agenti kim.
92. Soliqlarning asosiy funksiyasi nima.
93. Nominal YaIM qanday hisoblanadi.
94. Makroiqtisodiy agregatsiya nima.
95. Fransua Kenening makroiqtisodiyot tushunchasi bo'yicha jamiyatning asosiy tabaqalari qaysilar.
96. Import bojlari nima uchun belgilanadi.
97. Qat'iy taklif nima.
98. Bojxona boji nima uchun solinadi.
99. Litsenziyalash qanday maqsadni ko'zlaydi.
100. Makroiqtisodiyotda o'rganiladigan asosiy iqtisodiy omillardan biri nima.

**2-fan. "Jahon Iqtisodiyoti 1, 2" fanidan test topshiriqlari**

1. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar fanining predmeti nimani o'rganadi.
2. Xalqaro mehnat taqsimoti nimani anglatadi.
3. Xalqaro mehnat taqsimotining asosiy shakli qaysi.
4. Xalqaro mehnat taqsimotiga ta'sir etuvchi asosiy omil qaysi.
5. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga qaysi yo'nalish kirmaydi.
6. Xalqaro ixtisoslashuv nimaga olib keladi.
7. Xalqaro kooperatsiya nimani bildiradi.
8. Jahon xo'jaligi deganda nimani tushunamiz.
9. Xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi nimaga olib keladi.
10. Jahon iqtisodiyoti subyektlari qaysilar.
11. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojining asosiy sababi nima.
12. Globalizatsiya nimani anglatadi.
13. Xalqaro mehnat taqsimoti qaysi davrda kuchaydi.
14. Jahon xo'jaligining moddiy asosi nima.
15. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakli qaysi.
16. Xalqaro savdo nimani anglatadi.
17. Xalqaro savdoning asosiy subyekti kim.
18. Xalqaro savdo konsepsiyasi nimani tushuntiradi.
19. Mutlaq ustunlik nazariyasi muallifi kim.
20. Qiyosiy ustunlik nazariyasini kim ishlab chiqqan.
21. Qiyosiy ustunlik nimani anglatadi.
22. Klassik savdo nazariyalari nimaga asoslangan.
23. Xalqaro savdoda umumiy muvozanat nimani bildiradi.
24. Xeksher–Olin nazariyasi nimaga asoslangan.
25. Xalqaro savdoning asosiy foydasi nima.
26. Eksport nimani anglatadi.
27. Import nimani bildiradi.

28. Savdo balansi nima.
29. Savdo profitsiti nimani bildiradi.
30. Savdo defitsiti nimani anglatadi.
31. Proteksionizm nimani anglatadi.
32. Erkin savdo nimani nazarda tutadi.
33. Xalqaro savdo siyosati kim tomonidan belgilanadi.
34. Tarif nima.
35. Tariflarning asosiy vazifasi nima.
36. Kvota nimani anglatadi.
37. Subsidiyalar nima uchun beriladi.
38. Tarifli boshqaruvning kamchiligi nima.
39. Tarifli boshqaruvning afzalligi nimada.
40. Xalqaro savdoda davlatning asosiy roli nima.
41. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi nimani anglatadi.
42. Mehnat migratsiyasining asosiy sababi nima.
43. Jahon xo'jaligida inson resurslari nimani bildiradi.
44. Bandlik nima.
45. Mehnat migratsiyasining asosiy markazlari qaysilar.
46. Mehnat migratsiyasining eksportyor mamlakatga ta'siri nima.
47. Importyor mamlakat uchun migratsiya nimani beradi.
48. Xalqaro kapital migratsiyasi nimani anglatadi.
49. Kapital eksportining asosiy shakli qaysi.
50. To'g'ridan-to'g'ri investitsiya nimani anglatadi.
51. Portfel investitsiya nimasi bilan farqlanadi.
52. Transmilliy kompaniya nima.
53. TMKlarning asosiy roli nima.
54. Kapital migratsiyasining ijobiy tomoni nima.
55. Erkin iqtisodiy hudud nima.
56. Erkin iqtisodiy hududlarning maqsadi nima.
57. Xalqaro valyuta munosabatlari nimani o'rganadi.
58. Xalqaro kredit nima.
59. Yaponiya iqtisodiyotining asosiy xususiyati nima.
60. Globallashuv nima.
61. Ipak yo'li nechanchi asrlarda faoliyat ko'rsatgan.
62. Ipak yo'li tarmog'idagi Metallurgiya yutuqlari nimaga sabab bo'ldi.
63. Ipak yo'li tarmog'idagi Transport yutuqlari nimaga sabab bo'ldi.
64. Ipak yo'li tarmog'idagi Ishlab chiqarish yutuqlari nimaga sabab bo'ldi.
65. Xalqaro savdo nima.
66. "Savdoni liberallashtirish" ma'nosi nima.
67. Konteyner inqilobi qanday o'zgarishni keltirdi
68. Xitoy nechanchi yildan Bozor islohotlarini boshlagan.
69. Xitoy nechanchi yildan boshlab JST(Jahon Savdo Tashkiloti)ga a'zo bo'ldi.
70. Jahon Savdo Tashkilotining asosiy vazifalari nima.
71. Xalqaro ishlab chiqarish nima.
72. Ikki yoki undan ortiq mamlakatlar o'rtasidagi bo'ladigan pul aloqalari - …
73. Xalaqaro moliya to'g'ridan-to'g'ri … va …larga e'tibor qarati.
74. Jahon iqtisodiyotida demografiya nima.
75. ... - aholining ish bilan ta'minlangan qatlami
76. Iqtisodiy faol aholi necha turga bolinadi.
77. ... - tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda to'g'ridan to'gri qatnashmaydigan aholi qatlami
78. Migrantlar uchun "ohangrabo"dek tuyulgan mamlakat qaysi.
79. Emigratsiya nima.
80. Immigratsiya nima.
81. Reemigratisya nima.
82. Nega hukumatlar tariflarni joriy qiladi.
83. Quyidagilardan qaysi biri kvotalarni joriy qilish sababi emas.
84. Embargo nima sifatida ta'riflanadi.
85. Importni litsenziyasining asosiy maqsadi nima.
86. Xalqaro savdo doirasida subsidiya nima.
87. Mamlakat embargoni nima uchun qo'llaydi.
88. Qaysi savdo to'sig'i mamlakatlar o'rtasida keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin.
89. Proteksionizmning asosiy maqsadi nima.
90. 2014-yilda nimaqa AQSH hukumati po'lat ishlab chiqarishga tariflar joriy qildi.
91. "Aqlning ketishi" (Brain drain) tushunchasi nimani anglatadi.
92. Valyuta kursi devalvatsiyasi nima.
93. Barqaror rivojlanish (Sustainable Development) konsepsiyasining asosi nima.
94. OPEC tashkilotining asosiy maqsadi nima.
95. "G-7" (Katta yettilik) guruhiga kirmaydigan davlatni toping.
96. Globalizatsiya jarayonining salbiy oqibati sifatida nima ko'riladi.
97. Bretton-Vuds valyuta tizimi qaysi valyutaga asoslangan edi.
98. To'lov balansi defitsiti nimani anglatadi.
99. "Suzuvchi" valyuta kursi nimaga bog'liq.
100. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) qachon tashkil topgan?

**3-fan. "Raqamli iqtisodiyot" fanidan test topshiriqlari**

1. Internet-sotuvlar – bu........
2. Mobil Internet auditoriyasi - bu
3. Marketpleys - bu
4. Raqamli iqtisodiyotda tovar nima.
5. Raqamli iqtisodiyotda xizmat nima .
6. Raqamli iqtisodiyotda Aylanma (Revenue) nimani ifodalaydi.
7. Raqamli iqtisodiyotda marjinallik - bu .......
8. Raqamli iqtisodiyotda onlayn sotuv yunit iqtisodiyoti nimani taxlil qiladi.
9. Mijozlarni jalb qilish qiymati (CAC, customer acquisiiton cost) qanday ko'rsatkich.
10. Yunit iqtisodiyoti - bu........

11.Sotish huni - bu .......
12.Onlayn sotuvdagi Digital-strategiya nima.
13.Digital-strategiyani yaratishning necha qadami mavjud.
14.Marketpleys – bu qanday platforma...
15.Onlayn auksion nimaga imkoniyat yaratadi.
16.Trafik nima.
17.Tashrifchilar - bu .....
18.Raqamli iqtisodiyotda kiberxavfsizlikning asosiy maqsadi.
19.Kontent rejasi - bu.
20.Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarning rivojlanish qonuniyatlarini necha bosqichi mavjud.
21.Axborotlar obektni qamrab olishiga qarab qanday turlarga bo'linadi.
22.Axborotlar belgilanishiga qarab qanday turlarga bo'linadi.
23.Boshqaruvda kommunikatsion siyosat deganda nima tushuniladi.
24.Pablik rileyshnz nima.
25.Elektron hukumat bu .....
26.Elektron hujjat qanday xosil bo'ladi.
27.Qaysi suniy intellekt vositasi internetda tarjima qiladi.
28.Turizmda suniy intellekt qaysi jarayonni optimallashtiradi.
29.Raqamli iqtisodiyot nima.
30.Raqamli iqtisodiyotning asosiy drayveri nima hisoblanadi.
31.Raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotga ta'siri qanday.
32.Elektron savdo nima.
33.Elektron savdoning asosiy xususiyati nima.
34.Elektron savdoda to'lov usullari nima.
35.Elektron tijorat qonuniga ko'ra, onlayn shartnomalar qanday huquqiy ahamiyatga ega.
36.Elektron savdoda foydalaniladigan asosiy platforma.
37.Elektron savdoda tovarlar qanday yetkazib beriladi.
38.Elektron savdoda iste'molchi huquqlari qaysi qonun bilan himoya qilinadi.
39.Elektron savdoning asosiy muammolaridan biri nima.
40.Elektron savdoda ishlatiladigan xalqaro to'lov tizimi qaysi.
41.Elektron savdoda logistika nima.
42.Suniy intellekt asosidagi xavfsizlik tizimi qaysi sohada ishlatiladi.
43.Virtual yordamchi qanday xizmat ko'rsatadi.
44.Elektron savdoda mobil dasturlar roli.
45.Elektron savdo strategiyalariga qaysi kirmaydi.
46.Elektron savdo bozorida raqobat ustunliklari nima.
47.Sun'iy intellektning asosiy funksiyasi nima.
48.Sun'iy intellekt yordamida robot qanday harakat qiladi.
49.Raqamli iqtisodiyotda axborotning asosiy ahamiyati nimada.
50.Elektron tijoratning asosiy ustunligi qanday.
51.Qaysi texnologiya tranzaksiyalarni xavfsiz va o'zgartirib bo'lmas qilib saqlaydi.
52.Big Data asosan nima uchun foydalaniladi.
53.Raqamli iqtisodiyotda kiberxavfsizlikning asosiy maqsadi.
54.Payme, Click, PayPal kabi xizmatlar nimani ta'minlaydi.
55.Qaysi texnologiya mijozlar ehtiyojlarini prognoz qilishda qo'llaniladi.
56.IoT qurilmalarining asosiy vazifasi nima.
57.May-Gov xizmatlari nima uchun yaratiladi.
58.Onlayn savdo va logistikada raqamli texnologiya qachon muhim rol o'ynaydi.
59.Freemium modeli nima.
60.QR kodli to'lovlar qaysi turga kiradi.
61.Korxonada raqamli transformatsiya nima.
62.Web-analitika nima uchun kerak.
63.Raqamli iqtisodiyotning asosiy tendensiyasi qaysi.
64.B2B modeli nima.
65.ERP sistemasi nima uchun kerak.
66.Onlayn savdo qaysi afzallikni beradi.
67.SMM nima.
68.Google Analytics qanday maqsadda ishlatiladi.
69.Antivirus dasturi nimani ta'minlaydi.
70.Shopify asosan nima uchun ishlatiladi.
71.Onlayn do'kondan tovarni olib kelish jarayonida raqamli texnologiya nima uchun kerak.
72.Coursera va Udemy qanday xizmat.
73.DDoS hujumi nima.
74.Korxonada raqamli transformatsiyaning maqsadi.
75.Onlayn do'konda "korzina" nima uchun kerak.
76.Payme va Click xizmatlari asosan nima uchun ishlatiladi.
77.Ethereum asosan nimani ta'minlaydi.
78.Sun'iy intellekt asosan qaysi sohada qo'llaniladi.
79.Email marketing nima.
80.Parollarning mustahkamligi nima uchun muhim.
81.Fishing hujumi nima.
82.Aqlli uy sensorlari asosan nimani nazorat qiladi.
83.Onlayn do'konda "wishlist" nima.
84.B2C modeli asosan nima uchun qo'llaniladi.
85.P2P qanday aloqa turi.
86.NFC texnologiyasi nima uchun qo'llaniladi.
87.Aqlli uy qurilmalari nima uchun kerak.
88.SMM maqsadi nima.
89.Antivirus dasturi nimani himoya qiladi.
90.CRM asosiy vazifasi.
91.Affiliate marketing nima.
92.Chatbot nima uchun qo'llaniladi.
93.Onlayn do'konda "checkout" nima.
94.B2B platformalar asosan nima uchun qo'llaniladi.

95. NFC va QR kodli to‘lovlar nima uchun qo‘llaniladi.
96. SEO nima uchun muhim.
97. Veb-sayt trafikini tahlil qilish uchun qaysi xizmat.
98. Dropshipping asosiy afzallik.
99. ERP tizimi nimani ta’minlaydi.
100. Sun’iy intellektning inson kabi fikrlay olmasligini nimada ko‘rish mumkin.

### 4-fan. “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan test topshiriqlari

1. Iqtisodiyot nazariyasi nimani o‘rganadi.
2. Iqtisodiyot nazariyasining asosiy predmeti nima.
3. Iqtisodiyot nazariyasida o’rganafigan asosiy muammo nimalardan iborat.
4. Iqtisodiyot nazariyasining asosiy o’rganish usullari qaysi biri.
5. Deduksiya usuli nimani anglatadi.
6. Induksiya usuli qaysi.
7. Iqtisodiy qonunlarga xos bo‘lgan belgi qaysi.
8. Iqtisodiy tahlilning vazifasi nima.
9. Iqtisodiy nazariyada kuzatish metodi nimani anglatadi.
10. Iqtisodiy kategoriyalar nima.
11. Ishlab chiqarish jarayoni nima.
12. Ishlab chiqarish omillariga qaysi kiradi.
13. Mehnat omili nimani anglatadi.
14. Kapital omili nima.
15. Ishlab chiqarish jarayonida yer omili nimani bildiradi.
16. Ishlab chiqarishning asosiy natijasi nima.
17. Ishlab chiqarish samaradorligi nima.
18. Mehnat unumdorligi nimani bildiradi.
19. Texnik taraqqiyot ishlab chiqarishga qanday ta’sir qiladi.
20. Ishlab chiqarishning asosiy bosqichi qaysi.
21. Ishlab chiqarish vositalari nima.
22. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz bo‘lishi uchun nima kerak.
23. Ishlab chiqarishning kengaytirilgan shakli nimani anglatadi.
24. Ijtimoiy-iqtisodiy tizim nima.
25. Mulkchilik munosabatlari nimani bildiradi.
26. Mulkchilikning asosiy shakllaridan biri qaysi.
27. Davlat mulki qaysi.
28. Xususiy mulkning afzalligi nimada.
29. Aralash iqtisodiyot nimani anglatadi.
30. An’anaviy iqtisodiyotning belgisi.
31. Buyruqbozlik iqtisodiyoti qaysi bilan bog‘liq.
32. Bozor iqtisodiyotida mulkchilik shakllari qanday bo‘ladi.
33. Mulkchilikning iqtisodiy mazmuni nimada.
34. Foydalanish huquqi nima.
35. Tasarruf qilish huquqi nima.
36. Tovar nima.
37. Tovarning asosiy xususiyati.
38. Pulning asosiy vazifalaridan biri.
39. Pulning qiymat o‘lchovi vazifasi nimani bildiradi.
40. Tovar-pul munosabatlari qachon paydo bo‘lgan.
41. Bozor iqtisodiyoti nimaga tayanadi.
42. Bozor muvozanati nimani anglatadi.
43. Pulning muomala vositasi vazifasi nimani bildiradi.
44. Pulning jamg‘arma vositasi vazifasi qaysi.
45. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgisi.
46. Bozor iqtisodiyoti qaysi tizimga qarama-qarshi.
47. Pulning muomala qonuni nimani belgilaydi.
48. Bozor shakllanishi jarayonida pulning roli qanday.
49. Bozor iqtisodiyotining asosiy tamoyili.
50. Bozor iqtisodiyotida narxlar qaysi omilga tayanadi.
51. Bozor iqtisodiyotining afzalligi.
52. Bozor iqtisodiyoti nima asosida boshqariladi.
53. Bozor mexanizmining tarkibiy qismi.
54. Bozor iqtisodiyotida iste’molchi qanday rol o‘ynaydi.
55. Bozor iqtisodiyotida ishlab chiqaruvchi nimaga intiladi.
56. Bozor iqtisodiyotining kamchiligi.
57. Bozor iqtisodiyotining asosiy subyekti.
58. Bozor iqtisodiyoti samaradorligi nimaga bog‘liq.
59. Bozor iqtisodiyotida davlatning roli.
60. Bozor mexanizmi nimani anglatadi.
61. Bozor iqtisodiyotini rivojlantiruvchi omil.
62. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish nima.
63. O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tishda qaysi modelni tanladi.
64. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy yo‘nalishlaridan biri.
65. O‘tish davrining asosiy muammosi.
66. O‘tish davrida davlatning vazifasi.
67. Xususiylashtirish nima.
68. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish qachon boshlandi.
69. Bozor iqtisodiyotida narxlar nima asosida shakllanadi.
70. “Shok terapiya” modeli nima.
71. O‘zbekistonda bozor islohotlarining tamoyili.
72. O‘tish davrining asosiy natijalaridan biri.
73. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar maqsadi.
74. O‘tish davrining ijtimoiy himoya choralari nimani ko‘zlaydi.
75. Talab nima.
76. Taklif nima.
77. Talab qonunining mazmuni.

78. Taklif qonunining mazmuni.
79. Talabga ta'sir qiluvchi omil.
80. Taklifga ta'sir qiluvchi omil.
81. Bozor muvozanati qachon yuzaga keladi.
82. Narxning muvozanat darajasi nimadan hosil bo'ladi.
83. Muvozanat narxidan past narx belgilansa.
84. Muvozanat narxidan yuqori narx belgilansa.
85. Talab egri chizig'i qayerga qarab yo'naladi.
86. Taklif egri chizig'i qayerga qarab yo'naladi.
87. Talabning elastikligi nima.
88. Raqobat nima.
89. Raqobatning asosiy turi.
90. Monopoliya nima.
91. Raqobatning afzalligi.
92. Monopoliyaning kamchiligi.
93. Tabiiy monopoliya qaysi.
94. Oligopoliya nima.
95. Erkin raqobat sharoitida narx qanday shakllanadi.
96. Raqobatning vazifasi.
97. Monopoliyada narx qanday bo'ladi.
98. Monopolistning maqsadi.
99. Raqobatning asosiy omili.
100. Anti-monopoliya siyosati nima.

## Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati


1. Ruzmetov B., Ibragimov B., Ruzmetov Sh., Qurbanbayeva G. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv uslubiy qo'llanma. Ueganch. 2016.
2. Shodmonov Sh., Rahmatov M. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. –T.: Zamin nashr, 2021. 856 b.
3. Isayev Q. Xalqaro iqtisodiyot. Darslik. – T.: "Ma'naviyat". 2021 – 456 b.
4. G'ulomov S.S., Xolmo'minov J., Yo'ldoshev A. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
5. B.A. Begalov, M.K. Abdullayev. "Raqamli iqtisodiyot" / Darslik. - T.: «Iqtisodiyot», 2023. - 352 b.
6. Abdullayev O.M., Fattaxov A.A., K. Axmedov. Rakamli iktisodiyot. T.: "LESSON PRESS, nashrbti 2020 yil - 686 bet.
7. S.S. Gulyamov, R.X. Ergashev, S.N. Xamrayeva Raqamli iqtisodiyot - (o'quv qo'llanma).- T 2020. -377 b.
8. Gulyamov S.S., Ayupov R.H, Abdullayev O.M., BaltabayevaG.R. Raqamli iqtisodiyotda blok cheyn texnologiyalar. - T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019